

YANGI

O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 142 (931), 2023-yil 19-iyul, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news

O'ZBEKISTON PREZIDENTI
JIDDAGA KELDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ikki muqaddas masjid xodimi – Saudiya Arabistoni Podshohi Salmon bin Abdulaziz Ol Saudning taklifiga binoan amaliy tashrif bilan ushbu mamlakatga keldi.

Jidda shahrining xalqaro aeroportida mamlakatimiz yetakchisini Makka mintaqasi hokimi o'rinbosari shahzoda Badr bin Sulton Ol Saud va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

Sammitning asosiy tadbirlari — "Markaziy Osiyo — Ko'rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi" formatidagi davlat rahbarlari yig'ilishi

hamda ikki tomonlama muzokaralar 19-iyul kuni bo'lib o'tadi.

Kun tartibiga muvofiq, siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va madaniy-gumanitar sohalarida mintaqalararo hamkorlikni rivojlantirish masalalari ko'rib chiqiladi.

O'ZA

BIZ VA DUNYO

KO'P QIRRALI ISLOHOTLAR, OCHIQ TASHQI
SIYOSAT VA XALQARO MAYDONDAGI
QAT'IY SA'Y-HARAKATLAR TUFAYLI
O'ZBEKISTONGA QIZIQISH
ORTIB BORMOQDA

SAUDIYA ARABISTONINING YETAKCHI OMMAVIY
AXBOROT VOSITALARI O'ZBEKISTONDA KECHAYOTGAN
IJTIMOIY-SIYOSIY VOQEALAR HAQIDA

So'nggi yillarda O'zbekiston va Saudiya Arabistoni o'rtasidagi munosabatlarda yangi sahifa ochildi. Ikki mamlakat o'rtasidagi do'stona aloqalar, muntazamlik kasb etayotgan uchrashuvlar, samimiy muloqotlar o'zaro hamkorlik rivojiga turtki bermoqda. O'tgan

yilning 17-18-avgust kunlari davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning Saudiya Arabistoniga tashrifi ikki davlat hamkorligini bundan buyon ham xalqlar farovonligi yo'lida chuqurlashtirishning eng ishonchli garovi bo'ldi.

▶ Davomi 2-betda



MUNOSABAT

ISTAK, IRODA VA TASKIN
Yangi g'oya va tashabbuslar
ijrosi bilan mukammal bo'ladi

Yangi O'zbekiston oldiga qo'ygan maqsadlar zamiridagi eng ulug' g'oya — inson qadri ustuvorligi. 2023-yil ana shu ezgu maqsadga erishishda tub burilish davri bo'lmoqda. Yangilangan Konstitutsiyamiz qabul qilinishi, unga asosan ilk yirik siyosiy tadbir — muddatidan ilgari Prezident saylovi o'tkazilgan fikrimiz tasdig'i.

▶ Davomi 2-betda

BUGUNING GAPI

SUV TEJAMKORLIGI
nafaqat zarurat, balki kechiktirib
bo'lmaydigan dolzarb vazifadir

Prezidentimiz joriy yil 14-iyul kuni o'z lavozimiga kirishishga bag'ishlangan tantanali marosimda yangi O'zbekistonning yaqin istiqboldagi taraqqiyot yo'lining bosh maqsadlarini belgilab berdi.

▶ Davomi 4-betda

BUYUK O'ZBEK YO'LI

HARAKAT, ISHONCH
VA G'OLIBLIK RUHI

Bugun mamlakatimiz dunyo bilan bo'ylashmoqda. Yangi O'zbekiston — xalqaro doiradagi nufuzli siyosiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa tuzilmalarning faol ishtirokchisi, shu bilan birga, taraqqiyotga xizmat qiluvchi ko'plab tashabbuslarni ilgari surayotgan davlat. Dunyo miqyosida o'z o'rni va ahamiyatiga ega mamlakatda bo'layotgan har qanday o'zgarish siyosiy jamiyatni, xalqaro tashkilotlarni qiziqitmasdan qolmaydi, albatta. Bunga joriy yil 9-iyuldagi muhim siyosiy tadbir — muddatidan ilgari o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi yaqqol misol bo'la oladi.

▶ Davomi 3-betda

SHUKUH

YANGI O'ZBEKISTON
YANGI MARRALARGA INTILMOQDA

Shu yilning 14-iyul sanasi mamlakatimiz taraqqiyotida yuksak bosqich boshlangan kun sifatida tarixga muhurlandi. Zero, 9-iyul kuni bo'lib o'tgan Prezident saylovida 87,05 foiz ovoz bilan xalqimiz ishonchi va mehri sa-zovor bo'lgan Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma majlisida o'z lavozimiga kirishish oldidan tantanali qasamyod qabul qildi.



Mazkur marosimda davlatimiz rahbari nutq so'zladi. "...Bugun yelkama qanday ulug'vor mas'uliyat olayotganimni, Vatanimiz mustaqilligi, 36 milliondan ziyod aziz xalqimning tinchligi va farovonligi uchun shaxsan javobgar ekanimni yurak-yuragimdan his etib turib-

man. Mana shunday yuksak ishonch uchun, hurmat va e'tibor uchun ko'pmillatli, mard va donishmand xalqimizga farzandlik mehri va sadoqati bilan ta'zim qilaman", dedi jumladan.

▶ Davomi 4-betda

KELAJAK BUNYODKORLARI

MA'RIFATPARVAR
BOBOLARGA MUNOSIB
IZDOSHLAR

"El-yurt umidi" jang'armasi hamda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi hamkorligida bugungi kunda xorijda tahsil olayotgan va ayni damda ta'til sababli yurtimizda bo'lib turgan stipendiatlar uchun maxsus o'quv-seminar tashkil etildi.

▶ Davomi 5-betda

TA'LIM

ILMIY SALOHIYATNI
YETUK KADRLAR YARATADI

Oliy ta'lim tizimida chuqur islohotlarning amalga oshirilishi mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqishda muhim hisoblanadi. Ushbu islohotlar jarayonida oliy ta'lim muassasalarining zamon talablariga mos jihozlanishi, ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan jahon tajribasini tatbiq etish davr talabiga aylangan.

▶ Davomi 5-betda

MUNOSABAT

ISTAK, IRODA VA TASKIN

Yangi g'oya va tashabbuslar ijrosi bilan mukammal bo'ladi



Zulaiho AKRAMOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

Boshlanishi 1-betda

Joriy yil 9-iyul kuni bo'lib o'tgan saylov zamonaviy O'zbekiston va uning aholisi hayotida tub burilish asosi ekanini bugun o'z tasdig'ini topmoqda.

Prezidentimiz o'z lavozimiga kirishishga bag'ishlangan tantanalari marosimida ilgari surgan fikr va takliflar barcha yurt-doshlarimizni ruhlanitirib yubordi. Zotan, dildan chiqqan gaplar dillarga joylandi.

Pandemiya va uning ortidan ro'yi bergan iqtisodiy muammolar nafaqat yurt-doshlarimiz, balki butun yer yuzi aholisi hayotiga ham bevosita ta'sir ko'rsatdi. Biz bu sinovni ahlil va saxiy xalqimiz bilan birgalikda muvaffaqiyatli yengib o'tdik. Pirovardida, yurt-doshlarimizning islohotlarga e'tibori va ishonchi oshdi. Buni xalqimizning o'tkazilgan referendum va saylovdagi faol ishtiroki yaqqol tasdiqladi.

Yana bir muhim omil xalqaro miqyosda ro'y berayotgan voqea-hodisalarning insonlar turmush tarziga bevosita va bilvosita ta'siri bo'ldi. Xususan, dunyo miqyosida siyosiy beqarorlik va keskinlik ortishi, qurolli to'qnashuvlar, iqlim o'zgarishi, turli infektsiya va kutilmagan hodisalar yillar davomida shakllangan oziq-ovqat zarirdagi uzilishga olib keldi. Buning ortidan ayrim mamlakatlar oziq-ovqat taqchilligi bilan to'qnashdi. Shu va boshqa omillar migratsion oqimlarni kuchaytirgani esa turli nuqtalarda ijtimoiy barqarorlikka real xavf sola boshladi.

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishi, industrial sohadagi takomillashuv hamda resurslardan faol foydalanishga bo'lgan ehtiyoj ortishi natijasida yuzaga kelgan iqlim muammolari odatdagi hayot tarzini o'zgartirib yubormoqda. Zero, keyingi yillarda dunyo miqyosida eng issiq harorat, ayrim joylarda esa, aksincha, kuchli yog'ingarchilik ortidan suv toshqinlari, ko'chki va sel kelishi kuzatilmoqda. Vulqonlar uyg'onib, ba'zi joylarda qurg'oqchilik, cho'llashish eng katta muammoga aylanmoqda. Asosiy muammo esa yil sayin suvning "ortilishi" bo'lmoqda.

Ushbu omillar insoniyat xavotirini oshirayotgani ham haqiqat. Bunday vaziyatda bir oila, mahalla va yoki shaharni emas, 36

millionli butun bir mamlakatimizni asrash, bir vaqtning o'zida ertangi kunga umidni mustahkam ishonchga aylantirishdan ortiq ustuvor, murakkab vazifa bo'lmasligi tabiiy.

Hammasi ishonchdan boshlanadi

Prezidentimizning o'z lavozimiga kirishish tantanalari marosimida nutqini tinglab ekanman, avvalo, oddiy fuqarolar sifatida oldimizda naqadar ulkan, kechiktirib bo'lmamas va albatta, sharaflil vazifalar turgani ko'z oldimda to'liq gavdalandi. Binobarin, yuqorida sanab o'tilgan muammolarni bir nuqtaga birlashtirib tasavvur qilish yoki tasvirlashning o'z qiymati bo'lishiga qaramay, davlatimiz rahbari ularni birma-bir e'tirof etib, yechimiga doir muhim islohotlarga ruhlanitirgani barchamizga taskin bo'lgani bor gap.

Davlatimiz rahbari "Xalqimizning bizga bildirgan yuksak ishonchi barchamizdan — deputat va senatorlar, vazir va hokimlar, davlat va nodavlat tashkilotlari rahbarlaridan, har bir yurt-doshimizdan belimizni yanada mahkam bog'lab, avvalgidan ikki-uch karra ko'proq g'ayrat va shijoat bilan ishlashni talab etadi", dedi. Darhaqiqat, xalq vakili sifatida ushbu fikr mohiyatini, uning zamirida yotgan adolatni, eng avvalo, fuqarolarimiz orasida targ'ib qilish asosiy vazifamizdir. Zero, bugun har bir yurt-doshimiz Prezident tashabbusi bilan kechayotgan islohotlar mazmunini bilishga, ularning amalga oshirilishida bevosita ishtirokchi bo'lishga intilmoqda.

Bu jarayonda biz — deputatlik korpusi vakillari davlat va xalq o'rtasida mustahkam ko'priki vazifasini o'tashimiz talab etiladi. Buning yana bir ahamiyatli jihati shundaki, xalq bilan muloqotlarda aholi taklif va mulohazalari, muammolari o'rganiladi. Bu o'rinda davlatimiz rahbarining "Yangi davr uchun yangi g'oya va tashabbuslar kerak, yangi natijalar kerak. Shundaygina u tom ma'noda yangi davr bo'ladi", degan fikrini eslash joiz. Yangi g'oya va tashabbuslar esa aynan xalqimizning o'zi tomonidan bildirilishi yo'lida mavjud imkoniyatlarimizni to'liq ishga solishimiz dardor. Bunda bizga Prezidentning "Bugungi keskin raqobat olamida kechagi mezon va yondashuvlar bilan rivojlanib bo'lmaydi. Bugungi zamon — bu kechagi zamon emas", degan fikri dasturlamal bo'lishi shubhasiz.

Har bir kun bu — imkoniyat, har bir kun bu — kelajak

O'zbekiston o'z oldiga ijtimoiy davlat barpo qilishni asosiy maqsad qilib olganiga yana bir bor jiddiy urg'u berildi. Ular nimalarda aks etadi?

Eng avvalo, mavjud huquqiy-me'yoriy bazani yangilash bo'yicha oldimizda turgan keng ko'lami vazifalarni sidqidildan va izchil ado etishimiz zarur. Xususan, amaldagi qonunchilikni maqsadlarimiz va aholining xohish-istaklari hamda zamon talabi,

islohotlar shiddatiga mutanosib ravishda takomillashirish lozim bo'ladi. Ushbu kechiktirib bo'lmamas vazifani uddalash orqali nutqda bildirilgan barcha maqsadlarni izchil amalga oshirishning huquqiy poydevori bunyod etiladi. Bunda bizga xalq vakili sifatida orttirgan tajribamiz asqotadi, albatta.

Bu ulkan va sharaflil vazifalar ijrosida "Har bir kun bu — imkoniyat, har bir kun bu — kelajak poydevori" shiori barchamizni yagona va ulug' maqsad atrofida jipslashishga undab turishi shubhasiz. Albatta, bu boradagi harakatlar, davlat rahbari ta'kidlagani, Konstitutsiyamizda muhrlab qo'yilganidek, yurtimiz millati, tili va dinidan qat'i nazar, har bir fuqaromiz tinch va erkin, baxtli va farovon yashaydigan ijtimoiy davlatga aylinishida hal qiluvchi ahamiyatga molikligini barchamiz birdek tushunmog'imiz dardor.

Ayniqsa, bugungi kun talabidan kelib chiqib, ta'lim va tarbiya, sog'liqni saqlash, ilm-fan, madaniyat va san'at, sport sohalarni rivojlantirish, yangi uy-joylar qurish, aholini ichimlik suvi, energiya bilan ishonchli ta'minlash, ijtimoiy infratuzilmalarini yaxshilash bo'yicha belgilab olingan vazifalarni sifatlil va samarali bajarish lozim. Shundaygina xalqimizning roziligiga erishish mumkin. Zotan, biz bugungi islohotlarning ulkan bir bo'g'inimiz. Shunday ekan, dasturiy maqsadlarimizdan kelib chiqqan holda ham aytish mumkinki, aholini ijtimoiy himoyalashga yo'naltirilgan har qanday islohot biz uchun birdek muhim. Uni bajarish, bajargandam ham maromiga yetkazib jiro qilish aynan ijtimoiy davlat qurishning yagona va ishonchli asosidir.

Prezident nutqida aholining ehtiyojmand qatamlari, nogironligi bo'lgan shaxslar, yolg'iz keksalarni ko'lab-quvvatlash, kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan ishlar yangi bosqichga olib chiqilishi ta'kidlanadi.

Bu esa millionlab yurt-doshlarimiz qalbidagi ertangi kunga ishonchni mustahkamladi. Zero, maqola boshida sanab o'tilgan tashqi va ichki omillar hisobiga ko'p millionli xalqimiz turmushini yanada yaxshilash har birimizning zimmasiga javobgarlik yuklaydi. Binobarin, faoliyatga eskicha nazar bilan qarash, o'zini bugungi O'zbekiston ruhiyatiga moslashtirmaslik kutilgan natijani bermasligi hech kimga sir emas.

Nutqda har bir maqsad va vazifani amalga oshirish uchun aniq reja, moliyaviy asos va eng asosiy, kuchli istak va iroda, imkoniyatlar mavjudligini ta'kidlab o'tildi. Bu kishiga taskin beradi, albatta. Biroq buning o'zi yetarli emas, nazarimda. Haqiqiy taskin ana shu resurslardan oqilona foydalanilgandan so'nggina aholi turmushi kun sayin tadviriy ravishda yaxshilanib borishini kuzatish ortidan paydo bo'ladi.

Shunday ekan, endi barchamiz birgalikda yangi O'zbekistonda — inson qadri ustuvor bo'lgan jamiyat va xalqparvar davlatni albatta quramiz, degan yuksak ishonch bilan aytilgan fikrni o'zimizga nisbatan chaqiriq, deb bilmog'imiz lozim. Shu yo'l bilan bizga tahlil va ertani bashorat qilish mushkul bo'lgan zamondan talafot-siz, rivojlanish yo'limizdan ogishmagan holda, xalqimiz va kelajak avlod oldida yuzimiz yorug' bo'lib o'ta olamiz.

BIZ VA DUNYO

KO'P QIRRALI ISLOHOTLAR, OCHIQ TASHQI SIYOSAT VA XALQARO MAYDONDAGI QAT'IY SA'Y-HARAKATLAR TUFAYLI O'ZBEKISTONGA QIZIQISH ORTIB BORMOQDA

SAUDIYA ARABISTONINING YETAKCHI OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI O'ZBEKISTONDA KECHAYOTGAN IJTIMOY-SIYOSIY VOQEALAR HAQIDA

Boshlanishi 1-betda

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, O'zbekiston va Saudiya Arabistoni ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy aloqalarni jadallashtirish bo'yicha katta hajmdagi ishlarni amalga oshirmoqda. Xususan, muqobil energiya manbalari asosida ishlaydigan elektr stansiyalarini qurish bo'yicha yangi loyihalarni ishlab chiqish va hayotga tatbiq etishga katta e'tibor qaratilyapti. Bundan tashqari, tomonlar o'rtasida neft-gaz sanoati, sog'liqni saqlash, metallurgiya, qurilish materiallari ishlab chiqarish, axborot-kommunikatsiya sohasi, transport va logistika, fond bozorini rivojlantirish va turizm kabi qator yo'nalishlarda qo'shma loyihalarni birgalikda ishlab chiqish bo'yicha kelishuvlarga erishilgan.

Ma'naviy-ma'rifiy sohada ham mamlakatlarimiz juda yaqin aloqalarni yo'lga qo'yg'an. O'zbekiston islom olamining buyuk allomalari voyaga yetgan zamin hisoblanadi. Bu saudiyaliklarning O'zbekistonga nisbatan qiziqishini kuchaytirmoqda. Saudiyadan O'zbekistonga sayyohlar sonini oshirish bo'yicha bir qator loyihalar amalga oshirilyapti. Xususan, ikki davlat shaharlari o'rtasida aviaqatnovlar soni ko'paytirilmoqda.

O'z navbatida, O'zbekistonda kechayotgan o'zgarishlar, mamlakatni yanada rivojlantirish bo'yicha jamiyatning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning samarali natijalari Saudiya Arabistoni yetakchi ommaviy axborot vositalarining yuqori qiziqishiga sabab bo'layotir.

Xususan, Islom hamkorlik tashkiloti huzuridagi axborot agentliklari uyushmasi (UNA) elektron sahifasida 14-iyul kuni Toshkent shahrida bo'lib o'tgan O'zbekistonning saylangan Prezidentining lavozimiga kirishish tantanalari marosimiga bag'ishlangan maqola e'lon qilindi. Ushbu maqola, shuningdek, UNAning "Twitter" ijtimoiy tarmog'idagi akkauntiga ham joylashtirildi.

Maqolada ta'kidlanganidek, mamlakatimiz parlamenti — Qonunchilik palatasi va Senati qo'shma yig'ilishida Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Prezidenti lavozimiga kirishish marosimida davlat rahbari kelgusi yetti yil uchun yangi muddatni qo'lga kiritgach, tantanalil qasamyod qildi.

"Prezident o'z nutqida mamlakatning kelgusi yetti yilga rejalashtirilgan strategik maqsadlarini o'z ichiga olgan "Yo'l xaritasi" haqida ma'lumot bera turib, ijtimoiy sohan rivojlantirish, tadbirkorlik imkoniyatini kengaytirish, O'zbekiston iqtisodiyotiga sarmoya jalb etish kabi muhim masalalarga e'tibor qaratdi", — deya qayd etadi IHT

UNA nashri. UNA muddatidan ilgari O'zbekiston Prezidenti sayloviga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha kompaniya jarayonini keng yoritdi. "Strategic File" onlayn gazetasida muddatidan ilgari O'zbekiston Prezidenti sayloviga bag'ishlangan tahliliy maqola joylashtirildi.

Jurnalil Abdulhamid al-Kubbiyning "O'zbekistondagi Prezident saylovlari — Markaziy Osiyodagi demokratik model" sarlavhali maqolada 2019 va 2021-yillarda O'zbekistonda bo'lib o'tgan parlament va Prezident saylovlari, shuningdek, 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan Konstitutsiyaga o'zgartirish kiritish bo'yicha referendum mamlakatimizda demokratik jarayonlarni rivojlantirishda siyosiy ahamiyatga ega bo'lgani qayd etilgan. Nashrda ma'lum qilinishicha, O'zbekistonda muddatidan ilgari Prezident saylovi xalq xohish-irodasi bilan qabul qilingan yangilangan Konstitutsiya hamda xalqaro ekspertlar tavsiyalari orqali takomillashtirilgan saylov qonunchiligi asosida o'tkazildi.

"Al-Yavm" gazetasi ham O'zbekiston hayotidagi voqealarni tez-tez yoritadi. Ushbu gazeta sahifalarida "O'zbekiston bilan diniy, inson huquqlari va atom energiyasi sohasida Anglashuv memorandumlari imzolandi" sarlavhali maqola bosilib chiqdi.

Unda ta'kidlanishicha, mazkur hujjatlar Saudiya Arabistoni Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita va Saudiya Arabistoni Podshohligi Islom ishlari, davlat va irshod vazirligi o'rtasida hamda Inson huquqlari bo'yicha davlatimiz milliy markazi va Saudiya Arabistoni Podshohligi Inson huquqlari bo'yicha komissiyasi o'rtasida imzolangan.

Ko'rfaz arab davlatlarida ommabop "Al-Hadth" va "Nabd al-Hadath" elektron nashrlarida O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarga bag'ishlangan turkum maqolalar e'lon qilindi.

Ularda O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish yo'nalishidagi ishlar, aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan samarali chora-tadbirlar qayd etilgan. Bundan tashqari, mazkur maqolalarda Toshkentda o'tkazilgan "Kambag'allikni qisqartirish bo'yicha ilg'or tajribalarni tatbiq etish" II Xalqaro forumi tafsilotlari keng yoritilgan.

Mamlakatdagi yirik onlayn nashrlardan yana biri "Swift News" O'zbekistonda kechayotgan o'zgarishlarga bag'ishlangan turkum maqolalarini o'z o'quvchilari e'tiboriga havola etib kelmoqda.

Xususan, mazkur onlayn nashr "O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: Bugungi O'zbekiston kechagi O'zbekiston

emas" nomli maqola o'z sahifasida arab tilida joylashtirildi.

Maqolada ta'kidlanishicha, O'zbekiston 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining maqsadlaridan biri sifatida o'zining milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda ochiq va o'zaro manfaatli tashqi siyosatni davom ettirish orqali xalqaro munosabatlardagi rolini kuchaytirishga intilmoqda. Ushbu siyosat samarasida O'zbekistonning hamkor davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan mintaqaviy va global muammolarni bo'yicha doimiy muloqotining muhim natijalarini dunyo tan olmoqda.

"So'nggi yillarda O'zbekiston tashqi siyosat sohasida xorijiy mamlakatlar, ayniqsa, qo'shni davlatlar bilan do'stona va o'zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirish borasida salmoqli natijalarga erishmoqda. Mamlakat tarixda birinchi marta BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashiga ham saylandi", deyiladi nashrda.

Manbada, shuningdek, ochiq tashqi siyosat va xalqaro maydondagi qat'iy sa'y-harakatlar tufayli xalqaro hamjamiyatda O'zbekistonga qiziqish va ishonch ortib borayotgani, bu esa rasmiy Toshkentning xalqaro reytingdagi o'rini mustahkamlayotgani alohida ta'kidlangan.

"Swift News" UNESCO O'zbekistonning Xiva shahrini jahon merosi sifatida qabul qilgan" sarlavhali maqola ham e'lon qildi.

Bundan tashqari, Saudiya Arabistonining "AMMONNEWS.net", "Ain Al-Naqal", "TradeArabia: Business news information" elektron nashrlari, "Strategic File" va "Watana News" onlayn gazetasi singari yetakchi ommaviy axborot vositalarida yangi O'zbekistonning zamonaviy rivojlanishiga bag'ishlangan turkum maqolalar e'lon qilindi.

Saudiya Arabistoni OAV tomonidan e'lon qilingan aksariyat maqolalarda O'zbekiston taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish hamda umumiy manfaatlar asosida barcha qarodosh va do'st davlatlar bilan munosabatlarni mustahkamlashdan birdek manfaatdor ekanini qayd etilgan.

Bir so'z bilan aytganda, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida O'zbekistonda yanada taraqqiyot ettirish, aholi farovonligini oshirish bo'yicha islohotlari hamda mamlakatimizning ochiq, o'zaro manfaatli va konstruktiv tashqi siyosati Saudiya Arabistoni ekspert-tahlil, keng jamoatchilik, OAV va ishbilamon doira vakillarining yuqori qiziqishiga sabab bo'lmoqda.

"Dunyo" AA

SHUKUH

YANGI O'ZBEKISTON YANGI MARRALARGA INTILMOQDA



Aktam XAITOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosari, O'zLiDeP fraksiyasi rahbari

Boshlanishi 1-betda

Keyingi yillarda yuz bergan hayot-baxsh o'zgarishlar, yangilanishlarga guvoh bo'layotgan yurt-doshlarimiz Prezident saylovida to'g'ri tanlovni amalga oshirganini yana bir karra chuqur his etmoqda.

Prezidentimiz o'z so'zida barchamizni yanada qat'iyat va shijoat bilan ishlashga undadi: "Xalqimizning bizga bildirgan yuksak ishonchi barchamizdan — deputat va senatorlar, vazir va hokimlar, davlat va nodavlat tashkilotlari rahbarlaridan, har bir yurt-doshimizdan belimizni yanada mahkam bog'lab, avvalgidan ikki-uch karra ko'proq g'ayrat va shijoat bilan ishlashni talab etadi".

Davlatimiz rahbari O'zbekiston uchun kelgusi yillar siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy-gumanitar sohalarda tub burilish va ulkan o'zgarishlar davri bo'lishini ta'kidladi.

Partiyamiz asosiy elektorati sanalgan tadbirkorlik yanada keng quloch yozishidan manfaatdor ishbilamonlar, fermerlar uchun yaqin istiqbolda imtiyozlar, yengilliklar berish siyosati izchil davom ettiriladi. Soliq tizimini soddalashtirish va barcha tadbirkorlar uchun teng imkoniyatlar yaratish, kelgusi yillarda biznes uchun qo'shilgan qiymat, foyda, aylanmadan olinadigan va mol-mulk solig'i bo'yicha stavkalar oshirilmassligi qat'iy kafolatlanadi. Vaqtida soliq to'layotgan korxonalarida qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarish muddati bir kun etib belgilanib, soliq tekshiruvlari o'tkazilmasdan ularga davlat xaridlarida ustunlik beriladi. Shuning barobarida "Ochiq



muloqot"lar orqali tadbirkorlar muammolarini hal qilish, biznesga noqonuniy aralashuvga yo'l qo'yimaslik va xususiy mulk daxlsizligi borasida yo'lga qo'yilgan ishlar qat'iy davom ettiriladi.

Tadbirkorlik qo'llab-quvvatlanishining qanchalik muhimligini hamma yaxshi tushunadi. Ayniqsa, iqtisodiy taraqqiyotni tadbirkorlar faoliyatiz tasavvur etib bo'lmaydi. Tadbirkor nafaqat o'zini va oilasini, balki xalqni ham, davlatni ham boqadi, yangi ish o'rinlari tashkil etib, aholi bandligini ta'minlaydi. Tadbirkorlik rivojlansa, jamiyatning barcha jabhalarida o'zgarish, rivojlanish bo'ladi, odamlar hayotdan ko'ngli to'lib, ruhi ko'tarilib, yangi marralarga intiladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlab hajmini hozirgi 8 foizdan 25 foizga oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilab olinishi esa ko'plab yangi ish o'rinlari yaratilishiga turki beradi. Agrotarmoqda 2,5 million tonna quvvatga ega bo'lgan 100 ta yangi logistika markazini ishga tushirish, sohada eksport hajmini yiliga 10 milliard dollarga

yetkazish choralarini ko'rinishi, qishloq xo'jaligiga 15 milliard dollar investisiya jalb etilishi sohani yangi bosqichga olib chiqadi.

Mazkur vazifalar tadbirkorlarimiz hamda qishloq mulkdorlari istak-intilishlariga g'oyat hamohang.

Shu o'rinda suv taqchilligining oldini olish bo'yicha ham talay ishlar rejalashtirilayotganini tilga olish zarur. Chunki ushbu resursni tejasak, unumli foydalana olsakkina, jamiki mo'ljallarimiz ro'yogga chiqadi.

Davlatimiz rahbari biz faqat dehqonchilik bilan kun ko'radigan mamlakat bo'lib qolmasligimiz kerakligi, atrof-muhitga zarar yetkazmagan holda, ishlab chiqarish industriyasi kuchli rivojlangan mamlakatga aylinishimiz zarurligi, bu borada yirik dasturlar qabul qilindi, ular albatta, amalga oshirilishini qayd etdi. Yurtimiz nafaqat mohir paxtakor va bog'bonlar o'lakasi, balki IT bo'yicha yuqori malakali mutaxassislar, muhandis va energetiklar, konchi va metallurglar, fizik va kimyogarlar mamlakati bo'lishi kerakligini ta'kidladi.

Prezidentimiz ayni masalada yoshlarga tayanishini aytib o'tdi. Endilikda yoshlarni bilimli, barkamol etib voyaga yetkazishga e'tibor avvalgidan-da kuchayadi, ularga yaratilayotgan imkoniyatlar yanada kengaytiriladi.

Pirovardida, shuni aytishni istardikki, partiyamiz yangilangan Konstitutsiyamiz, Prezidentimiz saylovoldi dasturida belgilangan ustuvor maqsad va vazifalar mazmun-mohiyatini aholiga yetkazish va tushuntirish ishlariga kirishmoqda. Biz xalqimiz farovonligi, Vatanimiz yanada gul-lab-yashnashiga qaratilgan ishlar amalga tatbiq qilinishiga munosib hissa qo'shamiz.

BUYUK O'ZBEK YO'LI

HARAKAT, ISHONCH VA G'OLIBLIK RUHI



Qalandar ABDURAHMONOV, akademik

Boshlanishi 1-betda

Xalqaro hamiyat va turli missiyalar vakillari rivojlanayotgan mamlakatda bo'lib o'tayotgan siyosiy jarayonga qiziqish bildirishi bejiz emas. Boisi, saylov — demokratiya ko'zgusi. Chunki aynan saylov jarayonida mamlakatda ochiqlik, oshkorlik, so'z erkinligi, saylash va saylanish huquqiga oid umume'tirof etilgan demokratik tamoyillar amalda ta'minlangani ko'rinadi.

Shuning uchun O'zbekistonda bo'lib o'tgan Prezident saylovini 800 ga yaqin xalqaro kuzatuvchi kuzatib bordi. Ular orasida Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Parlament assambleyasi hamda Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti, Turkiy davlatlar Parlament assambleyasi, MDH va uning Parlamentlararo assambleyasi, Islom hamkorlik tashkiloti kabi nufuzli xalqaro tuzilmalar va dunyoning 50 ga yaqin davlatidan tashrif buyurgan kuzatuvchilar bor edi. Bundan tashqari, mazkur siyosiy jarayon tafsilotlarini milliy jurnalistlarimiz bilan yonma-yon xorijlik OAV vakillari ham keng yoritdi.

Biz bu raqamlarni keltirishimiz boisi bor. Gap shundaki, saylov bir kunda bo'lib o'tadi. Ammo bu jarayonga tayyorgarlik ko'rish, uni o'tkazish bilan bog'liq tadbirlarni xalqaro standartlar asosida tashkil etish oson ish emas. Bu mamlakat imijini va fuqarolar siyosiy maqomini belgilaydigan tadbir. Shu jihatdan ham har qanday saylov o'z mohiyatiga ko'ra, xalq irodasi bilan hamohang tarzda, mamlakat taraqqiyoti va aholi farovonligini ta'minlaydigan, yaqin va uzoq kelajak uchun ta'sir ko'rsatadigan mazmun-mohiyat kasb etadi. Agar bu saylov mamlakat Prezidentini saylash bilan bog'liq bo'lsa, uning ahamiyati yanada ortadi.

Prezident saylovi o'tganiga ham o'n kun bo'ldi. 14-iyul kuni ko'p millatli ahil xalqimiz, keng dunyo jamoatchiligi, rasmiy va jamoatchilik doiralari vakillari qayta saylangan Shavkat Mirziyoyevning o'z lavozimiga kirishishga bag'ishlangan tantanali marosimini kuzatdi. Hammamiz davlatimiz rahbarining nutqini eshitdik.

Mana shu o'n kun davomida xalqaro kuzatuvchilar ham, milliy va xorijlik jurnalistlar ham mamlakatimizda Prezident saylovi yuqori saviyada va demokratik ruhda bo'lib o'tganini ko'p bor e'tirof etdi.

Bu nimadan dalolat beradi? Baralla aytishimiz mumkinki, yangi O'zbekiston islohotlari nafaqat xalqimiz hayotini yaxshilashga, siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy-gumanitar, ilm-fan sohalarida tub burilishlar, ulkan o'zgarishlarga asos bo'ldi, balki, davlatimiz rahbari ta'bir bilan aytganda, **"Biz dadil oldinga intilib, qo'rquv va hadikdan xalos bo'ldik. Dunyo bizga ochildi va biz dunyoga ochildik. Jahonda qancha-qancha do'st va hamkorlar ortirdik. Yuksak irodemiz, qat'iy sa'y-harakatlarimiz bilan yana bunyodkor xalq, bunyodkor millat bo'lib maydonga chiqdik"**.

Xalqaro talab va standartlarga mos

Ta'kidlaganimizdek, Prezident saylovi har tomonlama xalqaro standart va talablarga munosib tarzda tashkil etildi va o'tkazildi. Shu jihatdan, bu saylovni yangi O'zbekistonning umume'tirof etilgan xalqaro demokratik tamoyillarga sa-

doqati, mamlakatda ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy barqarorlikning amaliy namunasi bo'ldi, desak ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Binobarin, Prezident saylovida xalqaro mezonlarga mos milliy saylov qonunchiligimizga, unda belgilangan adolat, ochiqlik, oshkorlik va erkinlik kabi demokratik tamoyillarga to'la amal qilindi.

Buni uchta tashkilot xulosalaridan keltirilgan quyidagi fikrlar bilan asoslasak bo'ladi.

Birinchisi. Saylovdan so'ng Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi (YXHT DIIHB) saylovni kuzatish missiyasi tomonidan dastlabki xulosa berildi. Unda YXHT DIIHB missiyasi tarkibida 220 kuzatuvchi respublikamizning turli nuqtalaridagi qator saylov uchastkalarida bo'lib, saylovni kuzatish imkoniga ega bo'lgani qayd etildi. Har bir saylov uchastkasida saylovchilarning kelishi, ro'yxatdan o'tishi, byulletenlarni to'ldirishi kabi barcha jarayonlar kuzatib borilgani aytiladi.

Barcha saylov uchastkalarida partiya va mahalla vakillari hozir bo'lib, jarayonning shaffofligini ta'minlashga o'z hissasini qo'shishgani alohida ta'kidlandi.

Shuningdek, missiya vakillari so'nggi yillardagi islohotlar natijasida xotin-qizlarning davlat va jamiyatdagi ishtiroki kengayotgani, xususan, parlament a'zolarining 29,8 foizini xotin-qizlar tashkil qilayotgani, jumladan, saylov jarayonida ham xotin-qizlar faol ishtirok etganini qayd etdi.

Markaziy saylov komissiyasi (MSK) saylovni tashkil etish va o'tkazish vakolatiga ega bo'lishi barobarida keng qonuniy vakolatlar bilan ta'minlanganiga ham e'tibor qaratildi. Ya'ni MSK muddat qisqaligiga qaramay, saylovga tayyorgarlikni samarali boshqardi, qonunda belgilangan muddatlarga rioya qildi. Muntazam ravishda yig'ilishlar o'tkazib, saylov jarayonining turli jihatlarini batafsil tartibga solib turdi. Shuningdek, MSK majlislarida kelib tushgan murojaatlar bo'yicha isobotlar e'lon qilib borildi. Bu esa saylov jarayonlari ochiqligini oshirdi.

YEXHT DIIHB missiyasi 2016-yilda ayollarning jamoat va siyosiy hayotdagi ishtirokini rag'batlantirishga qaratilgan islohotlar boshlanganidan keyin ularning parlamentdagi soni ortganiga alohida e'tibor qaratgan.

"SAYLOVDAN SO'NG YEVROPADA XAVFSIZLIK VA HAMKORLIK TASHKILOTINING DEMOKRATIK INSTITUTLARI VA INSON HUQUQLARI BO'YICHA BYUROSINI (YXHT DIIHB) SAYLOVNI KUZATISH MISSIYASI TOMONIDAN DASTLABKI XULOSA BERILDI. UNDA YXHT DIIHB MISSIYASI TARKIBIDA 220 KUZATUVCHI RESPUBLIKAMIZNING TURLI NUQTALARIDAGI QATOR SAYLOV UCHASTKALARIDA BO'LIB, SAYLOVNI KUZATISH IMKONIGA EGA BO'LGANI QAYD ETILDI.

Ikkinchisi. Saylovdagi ochiqlik va adolatni ta'minlash yuzasidan Bosh prokuratura ham o'z ma'lumotlarini taqdim etdi. Unga ko'ra, siyosiy tadbir davomida qonun ustuvorligini ta'minlash uchun mazkur tizimning 3 mingga yaqin xodimi safarbar etilgan. Alohida tayyorlangan 218 xodimdan tarkib topgan Bosh prokuratura va hududiy prokuraturalardagi ishchi guruhlar tizimli ravishda ish olib borgan. Xususan, saylovga doir ma'lumotlarni monitoring qilish va qonunbuzilish holatlarini aniqlashga qaratilgan tadbirlar doirasida internet axborot tizimi hamda ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilingan 1100 dan ortiq xabar o'rganilib, ommaviy axborot vositalari ma'lumotlari sinchkovlik bilan kuzatib borilgan.

Xalqaro tashkilotlar vakillari hamda keng jamoatchilik bilan yaqindan hamkorlik o'rnatilib, ma'lumotlar uzluksiz almashilgan. Jarayonda kuzatuvchilar, par-



tiya vakillari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlaridan e'tirozlar kelib tushmagan. Saylov jarayonida jiddiy qonunbuzilishlarga yo'l qo'yilgani aniqlanmagan.

Uchinchisi. O'zbekiston Oliy sudi mutasaddilari ham bu borada o'z xulosalarini bildirdi.

Amaldagi qonunlarimizda saylovga oid qonunchilikni buzganlik uchun ma'muriy va jinoyat javoabgarlik ham belgilangan bo'lib, bundan saylov jarayoni ishtirokchilarining qonunchilikka to'liq rioya etishi va huquqlari samarali amalga oshirilishini ta'minlash kafolati ko'zlangan.

Saylovga qo'yilgan masalalar yuzasidan tashviqot olib borish shartlari va tartibini buzish, saylovga tayyorgarlik ko'rish va saylov o'tkazish jarayonida axborot hamda tashviqot materiallarini qasddan yo'q qilib yuborish yoki ularga qasddan shikast yetkazish bilan bog'liq qoidabuzarlik uchun biror shaxs ma'muriy javobgarlikka tortilmagan.

Shu bilan birga, ovoz berishning yashirinishini buzish, saylov hujjatlarini qalbakilashtirish, imzo varaqalariga soxta yozuvlar kiritish, berilgan ovozlarni ataylab noto'g'ri hisoblash, fuqarolarning saylovda erkin ishtirok etishiga to'siqlik qilish, tahdid, aldash yoki og'dirib olish yo'li bilan monelik ko'rsatishga doir jinoyat

vatlagani zamirida muhim asoslar bor. **Birinchidan,** xalqimiz islohotlar mohiyatini anglab yetdi va keyingi yillarda amalga oshirilayotgan o'zgarishlarga nisbatan ishonchi ortdi. **Ikkinchidan,** fuqarolarimiz davlat va jamiyat qurilishida o'z ovozigacha ekanini tushunib yetdi. **Uchinchidan,** demokratik ruhda toblanayotgan jamiyatda daxldorlik hissi shakllangan yangi muhit paydo bo'ldi. Bu birinchi va ikkinchi asos muhitida paydo bo'lgan, hayotimizni tom ma'noda o'zgartirishga qodir manzara sifatida namoyon bo'ladi.

Yangi davr uchun yangi g'oya va tashabbuslar kerak

Saylovda xalqimiz oldiga tanlov qo'yildi. Kimga qaysi nomzod maqsad va rejalarini ma'qul kelsa, o'shanga ovoz berish huquqi berildi. Natijada esa Shavkat Mirziyoyev g'olib bo'ldi. Nimga? Chunki Shavkat Mirziyoyevning Saylovoldi dasturida ko'plab dolzarb vazifalar belgilab olingandiki, ularning har biri farzandlarimiz kelajagi, xalqimiz hayoti, mamlakatimiz taraqqiyotiga daxldor aniq yechimga ega tashabbuslar edi. Bular, tabiiyki, shu yurt farzandi bo'lgan, kelajagiga befarq bo'lmagan har kishi, ya'ni saylovchi e'tiborini tortmasdan qolmadi. Fikrimni Shavkat Mirziyoyevning Tadbirkorlar va ishbilarni harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining o'n birinchi syezdida keltirilgan Saylovoldi dasturidagi vazifalardan biri misolida davom ettiram. Bunga alohida urg'u berayotganim sababi, avvalo, o'zim ilm kishisiman, qolaversa, ta'lim-tarbiyaga qaratilgan e'tibor kelajakka qo'yiladigan eng zarur va eng mustahkam poydevordir.

Shavkat Mirziyoyev Saylovoldi dasturida 5 ta asosiy yo'nalishga e'tibor qaratishini ma'lum qildi. Bularning birinchisi — **har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoit yaratish.** Bu mamlakat kelajagi, farzandlarimiz taqdiri uchun eng oqilona yechimlardan biridir.

Unga ko'ra, 2030-yilga qadar maktabgacha ta'limga bo'lgan ehtiyoj to'liq qoplanadi va qamrov 100 foizga yetkaziladi. Bog'cha va maktablar filtrlangan ichimlik suvi bilan to'liq ta'minlanadi. Kelgusi 7 yilda maktablarda qo'shimcha 2,5 million o'quvchi o'rni yaratish zarur. Shu maqsadda "Yiliga 500 ming o'quvchi o'rni" dasturi amalga oshiriladi. Xususiy ta'limga qo'shimcha yangiliklar beriladi. Davlat-xususiy sheriklik asosida maktablar qurish keng joriy etiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'lim planshetlari bilan to'liq ta'minlanadi.

Farzandlari kelajagiga e'tibor qaratilgan jamiyat istiqbolli bo'ladi. Chunki buning uchun sarfflangan sarmoya e'taga

"KELGUSI 7 YILDA MAKTABLARDA QO'SHIMCHA 2,5 MILLION O'QUVCHI O'RNI YARATISH ZARUR. SHU MAQSADDA "YILIGA 500 MING O'QUVCHI O'RNI" DASTURI AMALGA OSHIRILADI. XUSUSIY TA'LIMGACHA QO'SHIMCHA YENGIILLIKLAR BERILADI. DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA MAKTABLAR QURISH KENG JORIY ETILADI. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI TA'LIM PLANSHETLARI BILAN TO'LIQ TA'MINLANADI.

o'n barobar, yuz barobar ziyodi bilan qaytishi tarixda o'z isbotini topgan.

Ilm cheksiz. Uning imkoniyatlari ko'p. Ulardan o'z o'rinda, samarali foydalanish esa ana shu imkoniyatlarni yuzaga chiqarishda ayni muddaodir.

Shu o'rinda kichik bir mulohazani o'rtaqta tashlaymiz. Iqtisodiy o'sish va rivojlanish moddiy boylik qatorida inson kapitaliga ta'sir qiluvchi omillarga ham bog'liq. Inson kapitali odamlar hayoti davomida to'plagan bilimlari, ko'nikma va tajribalarini jamiyat va mamlakat salohiyatini ro'yobga chiqarishga zamin yaratishidir. Sog'lom va sifatli ovqatlanish, sog'liqni saqlash, ta'lim tizimini rivojlantirish, ish o'rnlari yaratish va ishchilar malakasini oshirish orqali odamlarga sarmoya kiritish inson kapitali rivojiga hissa qo'shadi. Bu qashshoqlikni to'xtatish va ijtimoiy jihatdan birlashgan jamiyatni barpo etish uchun juda muhim jihat.

Jimonan sog'lom va bilimli odamlar ko'proq daromad topadi. Bu iqtisodiyotning qaysidir joyida rivojlanish bo'lishiga, oilalarga, farzandlarga sarmoya kiritilishiga ham asosdir.

Bugun dadil ayta olamizki, O'zbekiston bu borada qat'iy maqsadlarini belgilab olgan. Jumladan, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida 100 ta maqsad qamrab olingan bo'lsa, shundan 34 tasi adolati ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish bilan bog'liq vazifalardir.

Adolati ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish yo'nalishida ta'lim sifatini oshirish masalasiga berilgan ustuvorlik esa jamiyat kelajagini, avvalo, ta'lim sifati va ta'lim oluvchi qobiliyatini belgilab beradi.

O'zbekiston uchun, o'zbek xalqi uchun mustaqillikning har bir yili qadri va muhim ahamiyatli. Binobarin, o'tgan vaqt mobaynida amalga oshirilgan ishlar odamlar dunyoqarashida, hayotida katta o'zgarishlar yasadi.

Bugun yurtimizning istalgan joyiga boring, islohot eplinklarini sezasiz. Xohlagan kishi bilan gaplashing, yon-atrofida, turmushida bo'layotgan o'zgarishlar haqida to'liq qanab gapirishi mumkin. Xalqimizning g'ayrat-shijoati, bunyodkorlik salohiyati samarasi shahar qishloqlarimiz qiyofasida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Bular bir qarashda oddiy, silliqqina qilib aytiladigan gaplardek tuyulishi mumkin. Lekin buning zamirida qanchalik zahmatli mehnat yotganini anglash kerak. Har bir xalq faqat erkin va ozod bo'lgandagina

o'z hayot yo'lini, kelajagini o'zi belgilay oladi. Bugun O'zbekiston xalqi ana shu erkinlik asosida o'z taqdirini o'zi belgilab, kelajak sari dadil odimlamoqda.

Prezidentimiz 14-iyul kuni o'z lavozimiga kirishishga bag'ishlangan tantanali marosimda nutq so'zlar ekan, jumladan, bunday dedi: **"Qudratli xalqimizga tayanib, aql-zakovatimiz, bilim va tajribamizni ishga solib, islohotlarimiz sur'ati va samarasini yanada oshiramiz, hech qachon usaytirmaymiz. Qanchalik qiyin va mashaqqatli bo'lmasin, tanlagan yo'limizdan ortga qaytmaymiz. "Har bir kun bu — imkoniyat, har bir kun bu — kelajak poydevori" degan shior bugundan boshlab hayotimiz qoidasiga, har qaysi rahbarning, barcha xalq noiblari, vazir va hokimlarning kundalik faoliyat dasturiga aylanishi shartli"**.

Chindan ham, bugun yangi O'zbekiston taraqqiyotining yangi davri boshlanmoqda. Buning uchun esa, Prezidentimiz ta'bir bilan aytganda, **yangi g'oya va tashabbuslar kerak, yangi natijalar kerak.** Shundaygina u tom ma'noda yangi davr bo'ladi.

Prezidentimiz nutqida millionlab insonlarning umid va ishonchini oqlash, erishgan yutuqlarni yangi natijalar bilan mustahkamlash nafaqat vazifa, balki insoniy burchga aylanishi shartligi ta'kidlandi.

Bizning safimizga chet eldagi nufuzli oliyoghlarda o'qigan, yirik kompaniyalarda ishlagan qancha-qancha salohiyatli yoshlar kirib kelayotgani ularning imsolida, avvalo, ertangi kunimizning yangi rahbarlari, hudud, tarmoq va sohalarining mohir boshqaruvchilari namoyon bo'layotgani alohida qayd etildi.

Prezidentimiz O'zbekiston yoshlariga yana bir bor murojaat qilib, bugun tarixning, zamoning o'zi ular uchun beqiyos imkoniyatlar ochayotganini, yoshlar yangi O'zbekistonni, Uchinchi Rennessansi barpo etuvchi kuch ekanini aytdi. Davlatimiz, xalqimiz yaratib berayotgan imkoniyatlarning qadriga yetib, dunyoga o'z so'zini aytishga undadi. Bunda esa buning olingan bilim va tarbiya, ya'ni yo'naltirilgan kapital, albatta, asqotadi. Xulosa o'rinda aytish joizki, dunyoda hech bir ish o'z-o'zidan bo'lmaydi. Kimki aniq maqsad yo'lida harakat qilsa, ezgu niyat bilan oldinga intilsa va o'ziga ishonsa, shundaygina natija bo'ladi. Bugun bag'rikeng xalqimiz erishayotgan yutuqlar zamirida ham ana shu qudratli falsafa — harakat, ishonch va g'oliblik ruhi mujassam.



BUGUNNING GAPI

SUV TEJAMKORLIGI

nafaqat zarurat, balki kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb vazifadir



Dilshod ULUG'MURODOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Davlatimiz rahbari oldimizda turgan davr O'zbekiston uchun siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy-gumanitar sohalarda tub burilish va ulkan o'zgarishlar davri bo'lishi, kelgusi yetti yilga mo'ljallab ishlab chiqilgan strategik maqsadlarga erishish uchun barcha kuch va imkoniyatlar mavjudligiga alohida to'xtalar ekan, ustuvor maqsadlar qatorida suvdan samarali va tejamlilik bilan foydalanish borasidagi ishlar izchil davom ettirilishini ta'kidladim.

Jumladan, "Ekologiya va atrof-muhitni asrash, suv taqchilligining oldini olish bundan buyon ham biz uchun dolzarb vazifa bo'lib qoladi", dedi.

Darhaqiqat, global iqlim o'zgarishlari tufayli tobora kuchayib borayotgan suv taqchilligi muammosi bugungi kunga kelib aksariyat davlatlar kun tartibidagi asosiy masalalardan biriga aylandi. Zero, muammo ko'lamini shu darajadagi, ekspertlar hatto yaqin kelajakda kuzatilishi prognoz qilinayotgan kuchli tanqislik ortidan suvning bahosi neft va gaz, oltin kabi qimmatli qazilma boyliklari qatoriga chiqishini taxmin qilmoqda.

Bu bashoratlar qanchalik xavotirli bo'lmasin, bir tomondan, mantiqiydek. Chunki dunyo bo'yicha suvga talab mutasili ortishi barobarida zaxiralari kamayib boryapti. Buning salbiy ta'siri esa alqachon ko'pgina mintaqalar, jumladan, Markaziy Osiyoda ham sezilyapti.



Demak, tanqislik muqarrar ekan, suv qiymatining oshishi ham kunday ravshan. Binobarin, butun olam tirikligi, har bir ekin taqdiri, oziq-ovqatimiz mo'ligi, umuman, turmushimiz suv bilan bog'liq, usiz hayotni tasavvur etib bo'lmaydi.

Aytaylik, hozir ayni yoz — pishiqchilik fasli. Bozorlarimiz zaminimiz saxovati, dehqonlarimiz mehnati evaziga pishib yetilayotgan turfa mahsulotlar bilan yanada fayzli bo'lib boryapti. Lekin ana shu ne'matlar dasturxonimizga yetib kelgunga qadar qanday bosqichlardan o'tadi, qanday parvarishlanib, o'g'it va minerallar qancha beriladi, sug'orish uchun qancha suv sarflanadi? Zarurat bo'lsa, buni soha mutaxassislari batafsil izohlab, tushuntirib, hisoblab berishi mumkin. Zero, hozir hisob-kitobli zamon. Bunday pallada hech bir narsa behuda, ortiqcha sarflanmaydi. Masalan, bugun quyosh tig'ida yelkasida ketmon bilan dala sug'orayotgan suvchi suvning qadri naqadar ortib borayotganini allaqachon anglab yetgan. Fermerga qo'yib bersangiz, g'o'zasini kaftida sug'orishga tayyor. Chunki suv hisob-kitobli. Vaqt o'lchovli. Unga muayyan miqdor va vaqt ajratilgan. Shu vaqt ichida dalasini sug'orishga ulgurib qolishi hamda navbatni boshqa fermerga berishi kerak.

Zar qadri zargar biladi, deyishadi. Bugun suv qadri dunyo bilyapti.

Undan oqilona foydalanmasak, asrab-avaylamasak, ertaga o'zimiz aziyat chekishimiz mumkinligini barcha anglab yetyapti. Hozirgi kunda nufuzli xalqaro tashkilotlar minbarlarida ushbu mavzuda bot-bot gapirilyotgani, amaliy ishlariga tezroq o'tish zarurligi yuzasidan bong urilayotganining boisi ham shunda. Biz ham bu borada qayta-qayta maqola yozishdan, suvni tejashga undovchi fikrlar aytishdan erinmaymiz. Bu vaziyat taqozosi.

Poytaxtimizda "Yangi O'zbekiston: taraqqiyot, innovatsiya va ma'rifa" mavzusidagi xalqaro sheriklik tashabbuslari haftaligi doirasida "Barqaror rivojlanish maqsadlari: oziq-ovqat xavfsizligi va suv ta'minoti" mavzusida o'tkazilgan xalqaro konferensiyasida ham ayni shu masalalar muhokama qilindi. Unda O'zbekiston suv xo'jaligi vaziri Shavkat

2019-yildan boshlab O'zbekistonda suv tejoychi texnologiyalarni joriy etganlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmi yo'lga qo'yilgan. Jumladan, subsidiya ajratilayotgani klaster va fermerlarni rag'batlantirmoqda. Misol uchun, 2019-2022-yillarda suv tejoychi texnologiyalarni joriy qilgan qishloq xo'jaligi korxonalariga jami 1 trillion 465 milliard so'm subsidiya ajratilgan. Subsidiya ajratish mexanizmi yildan-yilga takomillashib boryapti.

2023-yilda suv tejaydigan texnologiyalarni 500 ming gektar maydonda joriy etish va 1,5 million gektarga yetkazish rejalashtirilgan. Ushbu texnologiyalarni ishlatish orqali 1,9 milliard metr kub suv, 100 ming tonna mineral o'g'it, 13 ming tonna yonilg'i-moylash materiallari iqtisod qilinadi hamda hosildorlikni o'rtacha 15-20 sentner oshirish imkoniyati yaratiladi.



Hamroyevning ta'kidlashicha, respublika-mizda jami sug'oriladigan yer maydonlari 4,3 million gektarni tashkil etib, bugungi kunga qadar suvni tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olingan maydonlar 1,2 million gektarga yoki sug'oriladigan yerlarning 28 foiziga yetkazildi. Jumladan, 473,5 ming gektarda tomchilatib, 44,7 ming gektarda yomg'irlatib, 18 ming gektarda diskret, 133,9 ming gektarda

O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasi doirasida 2030-yilgacha bajariladigan ustuvor vazifalar belgilangan.

Jumladan, Suv xo'jaligi vazirligidagi yer osti, yer usti va qaytar suv resurslari hisobini yuritish bo'yicha yagona integratsiyalashgan boshqaruv tizimi yaratiladi. 18,7 ming kilometr yoki 66 foizi tuproq o'zani hisoblangan magistral va xo'jaliklararo kanallarning beton qoplamali ulushi 13,1 ming kilometr yoki 46 foizga yetkaziladi.

Sug'orish tizimlarining foydali ish ko'f-fitsiyenti (FIK) 0,63 dan 0,73 gacha oshiriladi. Qishloq xo'jaligida sug'oriladigan maydonning har bir gektariga beriladigan suv hajmini 20 foiz kamaytirish orqali suv mahsuldorligi yaxshilanadi.

Qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishda tejamlor texnologiyalar bilan qamrab olingan yerning umumiy maydoni 2 million gektargacha, shu jumladan, tomchilatib sug'orish texnologiyasi 600 ming gektargacha yetkaziladi.

Xizmat muddatini o'tab bo'lgan nasos stansiyalaridagi 1 ming 750 dona nasos agregati energiya tejamlorlariga hamda 2 ming 100 dona elektrodvigatel yangisiga almashtiriladi.

Nasos stansiyalarining yillik elektr energiyasi iste'moli 8 milliard kilovatt-soatdan 2025-yilda 7 milliard kilovatt-soat va 2030-yilda 6 milliard kilovatt-soatga kamaytiriladi.

Barcha suv olish nuqtalari (18,5 ming-tajga "Aqli suv" ("Smart Water") qurilmalari o'rnatiladi va suv resurslari raqamli texnologiyalar asosida boshqariladi.

2030-yilgacha 1 ming 687 ta nasos stansiyasida elektr energiyasi iste'molini onlayn monitoring qilish tizimi joriy etiladi. Foydalanishdan chiqqan 298,5 ming



“SUV ENG QIMMAT RESURSGA AYLANISHI HAQIDA EKSPERTLAR O'TGAN ASRDA AYTGAN PROGNOZLARI BUGUN O'Z ISBOTI TOPA BOSHLADI. NEGAKI, 2030-YILGA BORIB O'ZBEKISTONDA 7 MILLIARD METR KUB SUV TANQISLIGI KUZATILISHI VA OQIBATDA MAMLAKAT DUNYODAGI SUV TANQIS BO'LGAN 33 DAVLAT QATORIGA TUSHIB QOLISHI EHTIMOLDAN YIROQ EMAS. BU ESA QISHLOQ XO'JALIGIDA SUVDAN OQILONA FOYDALANISH, SUG'ORISHNING TEJAMKOR USULLARINI QO'LLASHNI JADALLASHTIRISHNI TAQOZO ETADI.

gektar sug'oriladigan yer foydalanishga kiritiladi.

— Biz O'zbekiston Suv xo'jaligi vazirligi bilan birgalikda "O'zbekistonda suv resurslarini boshqarishni raqamlashtirish" loyihasini amalga oshiryapmiz, — deydi Vengriyaning "Art Work Design Kft" kompaniyasi direktori Andras Fedoseyev. — Ushbu loyiha doirasida O'zbekistondagi

qazish, shuningdek, nasos va boshqa agregatlar o'rnatish, quvur yotqizish ish-lari jadal olib borilyapti. Ushbu texnologiya ishga tushgach, ekinlarni sug'orish va oziqlantirish uchun suv va mineral o'g'it-lar sarfi 50 foizgacha tejaliishi kutilmoqda.

Yaqinda Toshkent viloyati Quyi Chirchiq tumanidagi "TST Sluster" ko'p tarmoqli klasterining yana 50 gektar go-

maqsad suv xo'jaligi sohasidagi muam-molarga yechim topish, shu bilan birga, mamlakatni kelajakda kutilayotgan suv tanqisligiga tayyorlashdir. Konsepsiyada belgilangan vazifalarni amalga oshirish-da Jahon banki hamkorlikka tayyor. O'z-bekistonda suv resurslarining qariyb 90 foizi qishloq xo'jaligi sohasida sarflanadi. Suvdan samarali foydalanish deganda faqatgina suvni tejaydigan texnologiyalar joriy etilishini tushunmaslik kerak. Sohani raqamlashtirish, xodimlarni o'qitish, malakasini oshirishga ham e'tibor qaratish zarur. Yaqinda Qoraqalpog'istonda bo'lib, Jahon banki ishtirokidagi "Janubiy Qoraqalpog'istonda suv resurs-larini boshqarishni yaxshilash" loyihasi doirasidagi ishlar bilan tanishdik. Shu-ningdek, Jahon banki ishtirokida "Farg'o-na vodiysida suv resurslarini boshqarish. 2-bosqich" loyihasi ham amalga oshiri-lyapti. Ushbu loyihalarda O'zbekiston bilan suv xo'jaligi sohasida hamkorligimiz rivoj-lanayotganidan dalolat beradi.

Mamlakat barqaror rivojlanishida oziq-ovqat va qishloq xo'jaligining o'ri katta.

— Ayni shu maqsadda 2019-yilda O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yil-larga mo'ljallangan strategiyasi qabul qilingan, — deydi O'zbekiston qishloq xo'jaligi vaziri Aziz Voitov. — Strategiya to'qqizta bannadan iborat bo'lib, birinchi band aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan. Bu global ahamiyatga ega vazifa. Ushbu vazifani bajarish uchun keyingi yillarda yerdan samarali foydalanish va ekin turlarini diversifikatsiya qilish maqsadlaridan kelib chiqib, ko'plab o'zgarishlarga eri-shildi. Aytib o'tish kerakki, g'alla va paxta maydonini qisqartirish evaziga meva-sabzavot ekish ko'paydi. Keyingi masala — kooperatsiyalar tizimi. Kichik dehqon xo'jaliklarini kooperatsiya orqali yirik tadbirkorlik subyektlariga aylanti-rish, xarajatlarini kamaytirish va daro-madini ko'paytirish hamda moliyalashti-rish uchun yangi imkoniyatlarni yaratish ustida ishlar olib borilmoqda. Oldimizda turgan eng asosiy vazifa esa, albatta,



birgalikda zarur o'g'itlar ekinning ildiz qis-miga uzatib beriladi. Natijada suv va o'g'it sarfi keskin kamayib, paxta hosildorligi o'rtacha 30 foizgacha ko'tariladi.

Shu kabi afzalliklar tufayli joriy yil-da yana 450 gektar maydon tomchilatib sug'orish usuliga o'tkazilishi rejalashtiril-gan. Ana shunda ushbu klasterda te-jamlor sug'orish tizimlari joriy etilgan maydonlar umumiy hajmi 1 ming 700 gektarga yetadi.

Umuman olganda, qishloq xo'jaligida yangi mexanizm — klaster va kooperat-siyalar faoliyati qo'llab-quvvatlanib, ular-da "amaliyot — ilm — innovatsiya" tizimi uyg'unlashtirilgani mutaxassislar e'tibori-ga tushmoqda. Bugungi kunda yurtimiz-da 833 ta agroklastar va 200 dan ortiq kooperativ samarali faoliyat yuritmoqda.

Innovatsiyalar va zamonaviy texni-ka hisobiga hosildorlik 29 sentnerdan 2022-yilda 34 sentnerga oshdi. Paxta yetishtirishda majburiy va bolalar mehnati-ga barham berildi. BCI — "Yaxshilangan paxta" standart tizimi joriy qilinmoqda. Paxta xomashyosi 100 foiz chuqur qayta ishlanmoqda.

— O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yil-larga mo'ljallangan konsepsiyasi tas-diqlangan, — deydi Jahon bankining suv resurslarini boshqarish loyihalari rahbari Abdulxamid Azad. — Bundan ko'zlangan

suv va yerdan oqilona foydalanish cho-ralarini kengaytirishdir. Shu maqsadda irrigatsiya va melioratsiya holati yo-monlashuvi natijasida foydalanishdan chiqqan 1,1 million gektar yerni oboro-tga kiritish konsepsiyasi qabul qilindi. O'tgan davrda oborotdan qabqan, lal-mi, yaylov yerlardan qariyb 580 ming gektari foydalanishga kiritildi. O'zlash-gan yerlarda 280 ming aholi bandligi ta'minlanib, qo'shimcha 3,7 million ton-na mahsulot yetishtirildi. Kelgusi 5 yilda yana 500 ming gektar yerlar foydala-nishga kiritiladi. Qishloq xo'jaligi yerla-rining chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalariga 25 yilga ijaraga berilishi belgilandi.

O'zbekiston qurg'oqchil mintaqada, okean va yirik dengizlardan olisda joy-lashgan mamlakat. Shu bois, biz uchun suvning ahamiyati, qadri ortib boraveradi. Bugungi ko'rilayotgan choralar, er-tangi turmushimiz ham hozirgidan kam bo'lmasligini ta'minlovchi kafolatdir. Shu jihatdan, mamlakatimiz qishloq va suv xo'jaligida boshlangan hamda hozirgi kunga kelib o'z samarasini bergan tizim — suv tejoychi texnologiyalarni joriy etish bo'yicha sa'y-harakatlar izchil davom et-tirilayotgani tahsinga loyiq. Zotan, suv taqchilligi sezilyotgan hozirgi sharoit-da qishloq xo'jaligining kelajagi va rivoji shunga bog'liq.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news

TA'LIM

ILMIY SALOHİYATNI YETUK KADRLAR YARATADI

Ahmed REYMOV, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti rektori, professor



Boshlanishi 1-betda

O'zbekiston Respublikasida yetuk va bilimli kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari orasida Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining ham o'z o'ri bor.

Universitetda ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish, yetuk pedagog kadrlar tayyorlash, innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish va iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqotlari borasida ko'plab amaliy ishlar olib borilmoqda. Ular quyidagi fakt va raqamlarda aks etadi.

Universitetda jami 983 nafar pedagog faoliyat ko'rsatayotgan bo'lsa, ularning 39 nafari fan doktori va professorlar, 323 nafari esa fan nomzodi va falsafa doktorlaridir. Universitetning ilmiy salohiyati 36,5 foizni tashkil etmoqda.

2022-yili universitet professor-o'qituvchilari 61 nafari — 2 nafari fan doktori (DSc) va 59

doktorlik (PhD) dissertatsiyalari muvaffaqiyatli himoya qilingani ham ilmiy faoliyatimiz muntazamligini aks ettiradi.

Shu bilan birga, universitet huzurida texnika, biologiya, tarix, iqtisodiyot, filologiya, yuridik fanlar bo'yicha ilmiy darajalar beruvchi jami 6 ta ilmiy kengash faoliyat ko'rsatayotgani ham ta'lim



nafari falsafa doktori bo'ldi. Joriy yilning birinchi olti oyida esa 4 ta fan doktori (DSc) va 32 ta falsafa doktori dissertatsiyalari himoya qilindi.

O'tgan yili professor-o'qituvchilar tomonidan 67 ta monografiya, 10 ta ixtiro patenti, 47 ta elektron dasturga mualliflik guvohnomali olini va Scopus xalqaro ma'lumotlar bazasidagi ilmiy jurnallarda, xorijiy hamda respublika ilmiy nashrlarida maqolalar, mahalliy hamda xalqaro konferensiya materiallari to'plamlari chop etildi.

Ayni paytda universitetda 5 nafar doktorant, 133 nafar tayanch doktoranti, 6 nafar stajyor-tadqiqotchi hamda 2 nafar mustaqil tadqiqotchi tahsil olmoqda. O'tgan yili jami 7 nafar tayanch doktorant tomonidan muddatdan ilgari

muassasamiz salohiyati va imkoniyatlarining o'ziga xos ifodasidir. Ularda 2022-yilda 51 ta — 47 ta falsafa doktori (PhD) va 4 ta fan doktori (DSc) dissertatsiyalari himoyasi muvaffaqiyatli o'tkazildi. Ayni paytda yana ilmiy darajalar beruvchi 2 ta ixtisoslashgan ilmiy kengash tuzilishi natijasida universitet huzuridagi kengashlar soni 8 taga ortdi.

Endi bebosita amaliy loyihalarimiz va ularning ahamiyati hamda qiymati haqida. Jumladan, 2021-yilda professor-o'qituvchilar tomonidan umumiy qiymati 1 milliard 530 million 277 ming so'm bo'lgan 8 ta amaliy loyiha bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan. O'tgan yili esa davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida qiymati 3 milliard 160 million

588 ming so'm bo'lgan 7 ta amaliy loyiha bo'yicha tadqiqot ishleri amalga oshirildi.

Prezidentimizning 2021-yil 29-iyuldagi "Bir-lashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2021-yil 18-maydagi "Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish to'g'risida"gi maxsus rezolyutsiyasini amalga oshirish choralarini to'g'risida"gi qaroriga asosan, Qoraqalpoq davlat universiteti tomonidan umumiy qiymati 1,5 milliard so'mlik 4 ta amaliy loyiha bajarilib, jami 600 million so'mlik 1 ta startap loyiha bo'yicha innovatsion tadqiqot ishleri olib borildi.

Davlatimiz rahbarining 2022-yil 6-iyulda-gi "2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga 7-iloza sifatida tasdiqlangan "2022-2023-yillarda oliy ta'lim muassasalari tomonidan yangi ishlanma va texnologiyalarni joriy etish loyihalarini amalga oshirish dasturi"da universitet tomonidan qiymati 950 million so'm bo'lgan 4 ta yangi ishlanma va texnologiyani yaratish hamda joriy etish loyihalari bo'yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar amalga oshirildi.

Ayni paytda 2 nafar professor-o'qituvchimiz respublika miqyosida "Innovatsion g'oyalay yatakchisi" ko'krak nishoni va 1 nafar yosh olim "Eng yaxshi loyiha ijrochisi" nominatsiyasi bo'yicha sertifikat sohibi bo'ldi. Universitet huzurida 2021-yilning sentabr oyidan umumiy qiymati 2,5 milliard so'mga teng bo'lgan "Bioekologiya" ilmiy tadqiqot laboratoriyasi o'z faoliyatini boshladi. Shuningdek, ilmiy tadqiqot, ta'lim, amaliyot va ishlab chiqarishga tatbiq etish jarayonlarini o'z ichiga olgan hamda tarkibida "Kimyoviy texnologiya" ilmiy-ishlab chiqarish laboratoriyasi, "Kimyo" bo'yicha ilmiy-eksperimental laboratoriya, "Qurilish materiallari" va "To'qimachilik mahsulotlari va uskunalar" ilmiy-texnologiya laboratoriyasi mavjud bo'lgan "Kimyoviy texnologiya" ilmiy-texnologik laboratoriya klasteri uchun zarur asbob-uskunalar va jihozlar olib kelindi.

Shuningdek, universitetimiz huzurida "Ilmiy innovatsion ishlanmalarni amaliyotga joriy etish markazi" o'z faoliyatini boshladi va bugungi kunda ushbu markazga 12 nafar fuqaro ishga qabul qilindi.

2022-yilning noyabr oyida avvalgi Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyatining oxirgi besh yiliga bag'ishlab o'tkazilgan hisobot reytingida Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining ilmiy tadqiqotlar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash, ilmiy innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish va iqtidorli talabalarning tadqiqot ishlarini tashkil etish borasidagi faoliyati samaradorligi yuqori baholandi, vazirlik tomonidan 190 ga yaqin oliy ta'lim muassasalari eng yuqori ko'rsatkich ega bo'lgan TOP-5 likdan o'rin egallashini juda yuqori natija deb bilamiz.

Joriy 2022/2023-o'quv yilida 39 nafar, jumladan, 3 nafar talaba Prezident stipendiya, 8 nafar talaba Navoiy, 4 nafari Beruniy, 2 nafari Ulug'bek, 1 nafari Islom Karimov, 1 nafari To'lepbegon Qayipbergenov, 1 nafari Ibroyim Yusupov nomidagi davlat stipendiyalari, 1 nafar talaba matematika fani bo'yicha akademik T.A. Sarimsoqov nomidagi, 17 nafar talaba Berdaq nomidagi stipendiya, 1 nafar talaba UzGTL kompaniyasi maxsus stipendiya bilan munosib topildi.

Ushbu yutuq va muvaffaqiyatlar Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti pedagogik jamoasining ilmiy salohiyati va ilmiy tadqiqot ishlarining ko'lami, eng muhimi, muntazamligining ifodasi deb ta'kidlashga izn beradi.

NUQTAYI NAZAR

INNOVATSION KLASTERLAR

OTMlarning xalqaro raqobatbardoshligiga xizmat qiladi

Botir USMONOV, Toshkent kimyo-texnologiya instituti rektori



Mamlakatimizda ta'lim xizmatlari sohasi jadal sur'atda o'smoqda. Bu esa talabaga asosiy iste'molchi sifatida qarashni va alohida munosabatni vujudga keltirmoqda. Zero, ta'lim iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning muhim omili bo'lib, davlat taraqqiyotining sifat jihatidan yangi bosqichga turki beradigan o'ziga xos dastak vazifasini o'tashi mumkin.

O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish jarayonida ta'lim xizmatlari sohasida ham samarali faoliyat yuritish va uning rivojlanishini ta'minlaydigan innovatsion yo'nalishlarni aniqlash ehtiyoji paydo bo'ldi. Shu bois, o'quv muassasalarda iste'molchilarni qanoatlantiradigan shart-sharoitni aniqlash, marketing faoliyatini yo'lga qo'yish, raqobat strategiyasini shakllantirish, ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlari sifatini oshirish zarurati yuzaga keldi. Bu esa tashqi va ichki muhitning doimiy monitoringini yuritishni taqozo etadi. Natijada kelajakda ta'lim tizimining raqobatbardoshligi va sifatini tez hamda funksional ta'minlashga qodir bo'lgan universitetlar va biznes tuzilmalarining davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanish mumkin. Talabalar uchun kurash sharoitida raqobatbardosh munosabatlarga tobora ta'lim xizmatlarining barcha sohasini qamrab olib boshladi. Shunga monand universitetlar ta'lim biznesida mustahkam o'rin egallashga harakat qilayotir.

Mamlakatimiz ta'lim makonida islohotlar jadal kechmoqda. O'zgarishlar ta'lim tizimining tuzilishi va funksiyalariga, shuningdek, mazmuni va o'qitish texnologiyalariga ta'sir ko'rsatmoqda. Zotan, O'zbekistonning zamonaviy ta'lim tizimi murakkab tashkiliy tuzilma bo'lib, uning doimiy yangilanib borishi mamlakat va aholi manfaatlarining o'zgarishi, shuningdek, ta'lim-tarbiya taraqqiyotidagi xalqaro jarayonlar, global sivilizatsiyaning umumiy tendentsiyalari bilan bog'liq.

Globallashuv davri ilg'or oliy ta'lim tizimini qurishimiz uchun bizdan yangicha yondashuvlarni talab qiladi.



Jahon ta'lim makonida aniq o'rin egallash maqsadida Markaziy Osiyo mamlakatlarining milliy ta'lim tizimi dunyoda ro'y berayotgan o'zgarishlar va rivojlanish jarayoniga moslashishi muhim ahamiyatga ega. Shu ma'noda, yurtimizda ta'lim sifatini va oliy ta'limga qamrovini oshirishga alohida e'tibor qaratilayotgani katta voqeadir. So'nggi besh yilda 100 dan ortiq yangi universitet tashkil etildi. Hozir O'zbekistondagi OTMlarning umumiy soni 2016-yildagi bilan taqqoslaganda 2-3 barobar yuqori ko'rsatkichga yetdi. Oliy ta'limga qabul qilish darajasi 2016-yilga nisbatan to'rt barobar oshdi. Bundan to'rt yil avval O'zbekistonda chet el universitetlarining atigi 7 ta filiali faoliyat yuritgan bo'lsa, hozir ular soni 30 ga yetdi.

Mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida ilmiy-texnikaviy salohiyat yetarli darajada yuqori sur'at bilan taraqqiy etayotgan bo'lsa-da, jahon bozorida raqobatbardoshligi pastligicha qolmoqda. Dunyo mamlakatlari tasnifiga ko'ra, O'zbekiston ta'lim tizimi kam rivojlangan davlatlar guruhiga kiradi. Jahon davlatlaridagi oliy ta'lim tizimining qiyosiy tahliliga qaralsa, mamlakatimizning bunday o'rni oliy ta'lim tizimi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan o'sish sur'ati pastligi bilan bog'liq.

Rivojlangan va rivojlanayotgan oliy ta'lim tizimiga ega mamlakatlar bilan solishtirganda eng past ko'rsatkich talabaga to'g'ri keladigan xarajatdir. O'zbekistonda uning qiymati 964 AQSH dollarini tashkil etadi. Ta'limga davlat xarajati mamlakatimizda yalpi ichki mahsulotga nisbatan 4,92 foizni, rivojlangan mamlakatlarda esa 6 foizdan ortiqni tashkil etadi. Budgetdan tashqari moliyalashtirish tizimi esa shakllanish bosqichida.

Buyuk Britaniya (13,92 foiz), Fransiya (10,81 foiz), Shveysariya (18,42 foiz), Avstraliya (20,42 foiz) bilan solishtirganda mamlakatdagi jami talabalar soniga nisbatan kelgan mobil talabalar soni atigi 5 foizni tashkil etadi.

Barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va mamlakatning xalqaro raqobatbardoshligini shakllantirish tajriba

almashish, texnologiya va axborot uzatish yo'li bilan bilimlardan iqtisodiy ustunlik sifatida foydalanish imkoniyatini beradi. Tashkilotlar, jumladan, davlat va barcha iqtisodiy sohalarning o'zaro hamkorligi akademik harakatchanlik orqali ta'minlanadi.

Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning innovatsiyaviyligi mamlakat xalqaro raqobatbardoshligining asosiy omili bo'lib, uni universitetlar va davlat-xususiy sheriklik doirasidagi tadbirkorlik tuzilmalari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik mexanizmi vositasida ta'minlash mumkin. Globallashuv sharoitida O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini innovatsion rivojlantirish strategiyasini shakllantirish orqali sohani takomillashtirish, jumladan, korporativ-klaster yondashuvi doirasida boshqaruvning innovatsion shakllarini tashkil etish, xorijiy OTMlar ishtirokini kengaytirish, maqsadli jamg'arma (endowment fond) larni shakllantirish, byudjet mablag'laridan samarali foydalanish, xususiy-davlat sherikligi doirasida tadbirkorlik tuzilmalarini jalb etish lozim.

Milliy ilmiy-talimiy innovatsion klasterlar yaratish orqali O'zbekistonda oliy ta'lim tizimining raqobatbardoshligini oshirish kun tartibidagi masaladir. Klaster deganda sanoat korxonalarini bilan birlashtirilgan va ular bilan hamkorlikda turli darajada o'zaro ta'sir qiluvchi ta'lim va ilmiy muassasalarni majmuasini tushunish maqsadga muvofiq. Klasterning innovatsionligi uning tuzilmasida ko'zga tashlanadi. Tuzilma tarkibiga ta'lim

KELAJAK BUNYODKORLARI

MA'RIFATPARVAR BOBOLARGA MUNOSIB IZDOSHLAR

Sirojiddin RUSTAMOV, Respublika Ma'naviyat-targ'ibot markazi xodimi

Boshlanishi 1-betda

Anjumanning maqsadi "El-yurt umidi" jamg'armasi stipendiatalari bilan doimiy muloqotni davom ettirish, ularda Vatanga sadoqat, o'zbek milliy qadriyatlariga hurmat, vatanparvarlik ruhini kuchaytirish hamda yangi O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati mohiyati va maqsadlarini tushuntirishdan iborat. Xorijda tahsil olayotgan yoshlarga mutaxassisliklari bo'yicha mamlakatimizni yanada rivojlantirish yuzasidan takliflarini o'rganish va amaliyotga joriy qilishga ko'maklashish, o'qishni tugatib qaytganlaridan so'ng ular uchun munosib mehnat faoliyatini tashkil etish ham ko'zda tutilgan.

— Hech qaysi davlat o'z-o'zidan buyuk bo'lib qolmaydi. Mamlakat iste'dodli va salohiyatli yoshlari bilan qudratlidir, — dedi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari, "El-yurt umidi" jamg'armasi Vasiylik kengashi a'zosi Minhojiddin Mirzo. — Shu ma'noda, Prezidentimiz tashabbusi bilan navqiron avlodni yuqori intellektual salohiyatga ega, zamonaviy va kreativ fikrlaydigan, ilm-fanga innovatsion g'oya va texnologiyalar olib kirishga qodir mutaxassis qilib tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Biz yashayotgan bu zamonlar, sizga nasib etgan bu imkonlar ne-ne insonlarga armon bo'lib qolgan.

Darhaqiqat, roppa-rosa bir asr ilgari ma'rifatparvar bobolarimiz o'z hisobidan millat yoshlarini xorijga o'qitishga yuborgan. Bu ulug' zotlarning maqsadi, davlatimiz rahbari ta'bir bilan aytganda, jaholat va qolovlik girdobida qolgan Turkiston xalqini dunyoviy ilm-fan, ilg'or kasb-hunarlar bilan qurollantirib, umumbashariy rivojlanish yo'liga olib chiqishdan iborat bo'lgan.

Zamon bizdan ma'rifatparvar jadidlariga izdoshlik maqomida fidoyilik bilan mehnat qilishni

talab etmoqda. Jahon mehnat bozorida raqobatbardosh va yuqori malakali mutaxassislarni yetakchi xorijiy ta'lim muassasalarida tayyorlash va malakasini oshirish O'zbekistonning har tomonlama jadal rivojlanishi uchun nihoyatda zarur. Seminarida dunyoning rivojlangan mamlakatlari-dagi eng nufuzli ta'lim va tadqiqot, innovatsiya va amaliyot maskanlarida tahsil olish va stajirovka o'tash baxti nasib etgan yurtimiz yoshlariga har bir lahza ni bekor o'tkazmay mamlakatimizdagi Uchinchi Rennesans poydevorini barpo etish jarayoniga munosib hissa qo'shishlari muhimligi ta'kidlandi.

Ma'lumot o'rinda aytish mumkinki, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi "El-yurt umidi" jamg'armasi bilan bir necha yillardan buyon yaqin hamkorlik qilib kelmog'uda. Bu borada jamg'arma tomonidan tashkil etiladigan stipendiya tanlovlarida ishtirok etuvchi nomzodlarning Vatanimiz tarixi, buyuk ajdodlarimiz merosi, ma'naviy bilim darajasini aniqlash bo'yicha suhbat dasturi ishlab chiqilgan. Suhbat jarayonida olimlar, madaniyat va san'at arboblari, yozuvchi va shoirlar ishtirok etadi.

Seminar qatnashchilari taniqli professorlar, yuqori martabali shaxslar, senator va vazirlardan qiziqarli ma'ruzalar tingladi. Oliy Majlis Senati, "Yangi O'zbekiston bog'i", Temuriylar tarixi davlat muzeyi, "Adiblar xiyoboni", "Qatag'on qurbonlari muzeyi" kabi diqqatga sazovor manzillarga sayohat uyushtirilmog'uda.

— Ma'ruzalardan so'ng hammamiz Shahidlar xotirasini yodgorlik majmuasiga bordik, — deydi AQSHning Minnesota universiteti talabasi Shahzoda Ikromova. — U yerda "Qatag'on qurbonlari" muzeyida bo'ldik. Mana, qarang, Vatanimiz taraqqiy ettiraman, degan insonlar

sohib tuzum davrida qanday mashaqqatlarga duchor bo'lgan. Hatto jismoniy yo'q qilishgacha borilgan. Bugun esa mustaqil davlatimiz biz, yoshlarga o'qib-o'rganishimiz uchun har tomonlama shart-sharoit yaratib bermoqda. O'quv seminari hamda ekskursiyalar orqali o'zimizdagi tarixiy bilimlarni yanada boyitdik. Jadid bobolarimiz haqida ko'proq ma'lumotlarga ega bo'ldik.

Bugungi kunda AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Kanada, Italiya, Ispaniya, Janubiy Koreya kabi rivojlangan mamlakatlarning global akademik reytinglariga kirgan University of Oxford, University of Cambridge, University College London, Imperial College London, Columbia University, Cornell University va boshqa shu kabi nufuzli universitetlarda mamlakatimiz uchun ustuvor hisoblangan mutaxassisliklar bo'yicha 500 ga yaqin stipendiatalar "El-yurt umidi" jamg'armasi ta'lim dasturlari bo'yicha o'qishni davom ettirmog'uda.

— Iqtisodiyot va sun'iy intellekt yo'nalishi bo'yicha magistratura ta'lim o'layotgan, — deydi AQSHning Duke universiteti talabasi Abdulmalik Abduqayumov. — Yozgi ta'lim davomida "El-yurt umidi" jamg'armasi stipendiatalari uchun tashkil etilgan maxsus o'quv-seminar boshqa davlatlarda o'qiyotgan talabalar bilan tajriba va fikr almashish imkonini bergani bois, menga ma'qul bo'ldi.

Hammamizga ma'lumki, hozirgi kunda axborot va ma'lumotlar bilan ishlash yanada tezlashgan. Shu sababdan sun'iy intellekt bo'yicha dunyoda ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Abdulmalik o'zi tahsil olayotgan universitetda ham sun'iy intellektni iqtisodiyot bilan bog'lagan holda foydali dasturlar yaratyapti. O'zbekistonga qaytib kelganida, albatta, Vatan ravnaqi uchun mana shunday strategik dasturlar ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish istagida izlanmoqda.

Yoshlarimiz dunyoning qaysi mamlakatida tahsil olmasin, hamisha Prezidentimiz mehrini, ishonchi va umidini his qilib yashamoqda. Universitetdagi shartnoma summasi, kundalik yashash chiqimlari bilan bog'liq barcha xarajalar "El-yurt umidi" jamg'armasi tomonidan qoplab berilyapti. Ular yoshlar ta'limini davlat siyosati darajasiga ko'targan Prezidentimizdan minnatdor ekanliklarini, kelajakda bildirgani e'tibor va ishonchni yuksak darajada oqlash uchun bor imkoniyatlarini ishga solib ilm olayotganlarini faxr bilan aytib o'tdi.

MULOHAZA

Ularni bir qarashdan tanisiz. Qo'llarida planshet yo telefon... Nimalarnidir axtarishadi, nimalarnidir qiyoslashadi. O'tirgan joylari kutubxonaga...

Kim bo'lsam ekan? Ushbu savol bizni o'z vaqtida bezovta qilishi kerak



Qutlibeka RAHIMBOYEVA, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniy xodimi

Yaqinda bir hamkasbim "Oltin qalam" XXVII Milliy mukofoti sovrindorlaridan biri bo'lishi munosabati bilan suhbatlashib qoldik.

To'ng'ich o'g'lim birvarakayiga xorijning ikkita oliyog'higa kirish uchun yetarli ballarni yig'di. Lekin hali-hanuz kitobdan bosh ko'tarmayapti.

Ha, o'g'il-qizlarimiz ham jisman, ham fikran ulg'aymoqda. Shuning uchun faqat suhbatdoshimga o'xshagan ziyoli onalarning farzandlari bitta-ikkita bo'lib emas, mamlakatimiz rahbari tashabbusi bilan yurtimizning turli go'shalarida tashkil etilgan Prezident maktabi, ijod maktablari bitiruvchilari ham guras-guras bo'lib, to'p-to'p bo'lib institut, universitetlarga intilmoqda.

Sezganingizday, Prezident maktablari, ijod maktablari bitiruvchilari oldida ayni kunlarda "Kim bo'lsam ekan?" degan savol ko'ndalang bo'lib turgani yo'q. Yana hamkasbim singari o'z ota-onalaridan ko'rganlarini bolalari hayotida takrorlayotgan o'qish uchun o'qishga kirish uchun hujjat tayyorlayapti.

Na darsdan so'ng, na dam olish kunlari bo'sh vaqtimiz bo'lardi. Sport, musiqacha... xullas, qadamimiz yetadigan joyda qanday to'garak, ansambol bo'lsa, hammasiga qatnashardik.

Ushbu savol bizni o'z vaqtida bezovta qilishi kerak katta ahamiyat berilayotgan bizning davrimizda maktablardagi o'quv sifatini ko'tarish masalasiga davlat darajasida e'tibor ko'rsatilayotgan dorilamon zamonimizda ham bitiruvchilarning oliyog'hilarga kirishi bilan bog'liq qator muammolar borligidan ko'z yumib bo'lmaydi.

Ushbu savol bizni o'z vaqtida bezovta qilishi kerak katta ahamiyat berilayotgan bizning davrimizda maktablardagi o'quv sifatini ko'tarish masalasiga davlat darajasida e'tibor ko'rsatilayotgan dorilamon zamonimizda ham bitiruvchilarning oliyog'hilarga kirishi bilan bog'liq qator muammolar borligidan ko'z yumib bo'lmaydi.

Ushbu savol bizni o'z vaqtida bezovta qilishi kerak katta ahamiyat berilayotgan bizning davrimizda maktablardagi o'quv sifatini ko'tarish masalasiga davlat darajasida e'tibor ko'rsatilayotgan dorilamon zamonimizda ham bitiruvchilarning oliyog'hilarga kirishi bilan bog'liq qator muammolar borligidan ko'z yumib bo'lmaydi.

Ushbu savol bizni o'z vaqtida bezovta qilishi kerak katta ahamiyat berilayotgan bizning davrimizda maktablardagi o'quv sifatini ko'tarish masalasiga davlat darajasida e'tibor ko'rsatilayotgan dorilamon zamonimizda ham bitiruvchilarning oliyog'hilarga kirishi bilan bog'liq qator muammolar borligidan ko'z yumib bo'lmaydi.



Ushbu savol bizni o'z vaqtida bezovta qilishi kerak katta ahamiyat berilayotgan bizning davrimizda maktablardagi o'quv sifatini ko'tarish masalasiga davlat darajasida e'tibor ko'rsatilayotgan dorilamon zamonimizda ham bitiruvchilarning oliyog'hilarga kirishi bilan bog'liq qator muammolar borligidan ko'z yumib bo'lmaydi.

Ushbu savol bizni o'z vaqtida bezovta qilishi kerak katta ahamiyat berilayotgan bizning davrimizda maktablardagi o'quv sifatini ko'tarish masalasiga davlat darajasida e'tibor ko'rsatilayotgan dorilamon zamonimizda ham bitiruvchilarning oliyog'hilarga kirishi bilan bog'liq qator muammolar borligidan ko'z yumib bo'lmaydi.

Ushbu savol bizni o'z vaqtida bezovta qilishi kerak katta ahamiyat berilayotgan bizning davrimizda maktablardagi o'quv sifatini ko'tarish masalasiga davlat darajasida e'tibor ko'rsatilayotgan dorilamon zamonimizda ham bitiruvchilarning oliyog'hilarga kirishi bilan bog'liq qator muammolar borligidan ko'z yumib bo'lmaydi.

Ushbu savol bizni o'z vaqtida bezovta qilishi kerak katta ahamiyat berilayotgan bizning davrimizda maktablardagi o'quv sifatini ko'tarish masalasiga davlat darajasida e'tibor ko'rsatilayotgan dorilamon zamonimizda ham bitiruvchilarning oliyog'hilarga kirishi bilan bog'liq qator muammolar borligidan ko'z yumib bo'lmaydi.

Ushbu savol bizni o'z vaqtida bezovta qilishi kerak katta ahamiyat berilayotgan bizning davrimizda maktablardagi o'quv sifatini ko'tarish masalasiga davlat darajasida e'tibor ko'rsatilayotgan dorilamon zamonimizda ham bitiruvchilarning oliyog'hilarga kirishi bilan bog'liq qator muammolar borligidan ko'z yumib bo'lmaydi.

Ushbu savol bizni o'z vaqtida bezovta qilishi kerak katta ahamiyat berilayotgan bizning davrimizda maktablardagi o'quv sifatini ko'tarish masalasiga davlat darajasida e'tibor ko'rsatilayotgan dorilamon zamonimizda ham bitiruvchilarning oliyog'hilarga kirishi bilan bog'liq qator muammolar borligidan ko'z yumib bo'lmaydi.



Ushbu savol bizni o'z vaqtida bezovta qilishi kerak katta ahamiyat berilayotgan bizning davrimizda maktablardagi o'quv sifatini ko'tarish masalasiga davlat darajasida e'tibor ko'rsatilayotgan dorilamon zamonimizda ham bitiruvchilarning oliyog'hilarga kirishi bilan bog'liq qator muammolar borligidan ko'z yumib bo'lmaydi.

Ushbu savol bizni o'z vaqtida bezovta qilishi kerak katta ahamiyat berilayotgan bizning davrimizda maktablardagi o'quv sifatini ko'tarish masalasiga davlat darajasida e'tibor ko'rsatilayotgan dorilamon zamonimizda ham bitiruvchilarning oliyog'hilarga kirishi bilan bog'liq qator muammolar borligidan ko'z yumib bo'lmaydi.

Ushbu savol bizni o'z vaqtida bezovta qilishi kerak katta ahamiyat berilayotgan bizning davrimizda maktablardagi o'quv sifatini ko'tarish masalasiga davlat darajasida e'tibor ko'rsatilayotgan dorilamon zamonimizda ham bitiruvchilarning oliyog'hilarga kirishi bilan bog'liq qator muammolar borligidan ko'z yumib bo'lmaydi.

Ushbu savol bizni o'z vaqtida bezovta qilishi kerak katta ahamiyat berilayotgan bizning davrimizda maktablardagi o'quv sifatini ko'tarish masalasiga davlat darajasida e'tibor ko'rsatilayotgan dorilamon zamonimizda ham bitiruvchilarning oliyog'hilarga kirishi bilan bog'liq qator muammolar borligidan ko'z yumib bo'lmaydi.

Ushbu savol bizni o'z vaqtida bezovta qilishi kerak katta ahamiyat berilayotgan bizning davrimizda maktablardagi o'quv sifatini ko'tarish masalasiga davlat darajasida e'tibor ko'rsatilayotgan dorilamon zamonimizda ham bitiruvchilarning oliyog'hilarga kirishi bilan bog'liq qator muammolar borligidan ko'z yumib bo'lmaydi.

Ushbu savol bizni o'z vaqtida bezovta qilishi kerak katta ahamiyat berilayotgan bizning davrimizda maktablardagi o'quv sifatini ko'tarish masalasiga davlat darajasida e'tibor ko'rsatilayotgan dorilamon zamonimizda ham bitiruvchilarning oliyog'hilarga kirishi bilan bog'liq qator muammolar borligidan ko'z yumib bo'lmaydi.

Ushbu savol bizni o'z vaqtida bezovta qilishi kerak katta ahamiyat berilayotgan bizning davrimizda maktablardagi o'quv sifatini ko'tarish masalasiga davlat darajasida e'tibor ko'rsatilayotgan dorilamon zamonimizda ham bitiruvchilarning oliyog'hilarga kirishi bilan bog'liq qator muammolar borligidan ko'z yumib bo'lmaydi.

Ushbu savol bizni o'z vaqtida bezovta qilishi kerak katta ahamiyat berilayotgan bizning davrimizda maktablardagi o'quv sifatini ko'tarish masalasiga davlat darajasida e'tibor ko'rsatilayotgan dorilamon zamonimizda ham bitiruvchilarning oliyog'hilarga kirishi bilan bog'liq qator muammolar borligidan ko'z yumib bo'lmaydi.



Ushbu savol bizni o'z vaqtida bezovta qilishi kerak katta ahamiyat berilayotgan bizning davrimizda maktablardagi o'quv sifatini ko'tarish masalasiga davlat darajasida e'tibor ko'rsatilayotgan dorilamon zamonimizda ham bitiruvchilarning oliyog'hilarga kirishi bilan bog'liq qator muammolar borligidan ko'z yumib bo'lmaydi.

Ushbu savol bizni o'z vaqtida bezovta qilishi kerak katta ahamiyat berilayotgan bizning davrimizda maktablardagi o'quv sifatini ko'tarish masalasiga davlat darajasida e'tibor ko'rsatilayotgan dorilamon zamonimizda ham bitiruvchilarning oliyog'hilarga kirishi bilan bog'liq qator muammolar borligidan ko'z yumib bo'lmaydi.

Ushbu savol bizni o'z vaqtida bezovta qilishi kerak katta ahamiyat berilayotgan bizning davrimizda maktablardagi o'quv sifatini ko'tarish masalasiga davlat darajasida e'tibor ko'rsatilayotgan dorilamon zamonimizda ham bitiruvchilarning oliyog'hilarga kirishi bilan bog'liq qator muammolar borligidan ko'z yumib bo'lmaydi.

ADABIY MEROS

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti Sharq qo'lyozmalari xazinasi asosiy fondida №12891 raqami bilan "Sabzazor" nomli kitob saqlanadi.



110 yilda XALQQA QAYTGAN KITOB



Shahnoza NAZAROVA, filologiya fanlari doktori

Kitob o'lchami 21x13,5 santimetr, matn o'lchami 11x18 santimetr bo'lib, muqovasi va yashil tusli kartondan ishlangan.

To'plam an'anaviy tarzda basmala (Yaratganning nomi) bilan boshlanadi, hamd va na't keltiriladi.

1906-yildan nashr etila boshlagan "Taraqqli", "Xurshid", "Shuhrat", "Sadoyi Turkiston", "Sadoyi Farg'ona", "Oyina" kabi nashrlar millatni uyg'otish uchun ta'sis etilgan edi.

Ushbu savol bizni o'z vaqtida bezovta qilishi kerak katta ahamiyat berilayotgan bizning davrimizda maktablardagi o'quv sifatini ko'tarish masalasiga davlat darajasida e'tibor ko'rsatilayotgan dorilamon zamonimizda ham bitiruvchilarning oliyog'hilarga kirishi bilan bog'liq qator muammolar borligidan ko'z yumib bo'lmaydi.

Ushbu savol bizni o'z vaqtida bezovta qilishi kerak katta ahamiyat berilayotgan bizning davrimizda maktablardagi o'quv sifatini ko'tarish masalasiga davlat darajasida e'tibor ko'rsatilayotgan dorilamon zamonimizda ham bitiruvchilarning oliyog'hilarga kirishi bilan bog'liq qator muammolar borligidan ko'z yumib bo'lmaydi.

Ushbu savol bizni o'z vaqtida bezovta qilishi kerak katta ahamiyat berilayotgan bizning davrimizda maktablardagi o'quv sifatini ko'tarish masalasiga davlat darajasida e'tibor ko'rsatilayotgan dorilamon zamonimizda ham bitiruvchilarning oliyog'hilarga kirishi bilan bog'liq qator muammolar borligidan ko'z yumib bo'lmaydi.

yemirayotgan masalalar, xurofot kechiktirib bo'lmam muammo sifatida ko'tarildi. Bunda o'zbek she'riyatini ich-ichidan yangilana borgan, mumtoz adabiyot usturqa vazifasini bajarganini tushunish mumkin.

Jadid adabiyoti tadqiqotchilari davr adabiyoti qarodosh xalqlar adabiyoti, rus tarjima adabiyoti, umuman, tashqi omillar ta'sirida yangilandi, degan xulosalarni yaxshi ko'radi.

Jadid adabiyoti merosi ko'lami biz tasavvur qilgandan-da kengroq. Hali oldimizda Abdulla Avloniyning "Adabiyot yoxud milliy she'rilar" (1909), Sidqiy Xondayliqiyning "Tuhaftay Shavkat" (1913), "Savg'o'ti Shavkat" (1913), "Bazmi ishrat", Hoji Muinning "Guldastai adabiyot" (1913), Fitrat tartib bergan "O'zbek yosh shoirilari" (1922) kabi kitoblar, yaqindagina ilmiy jamoatchilikka ma'lum qilingan "Milliy ash'ori Tarjimon" (1910), "Milliy she'rilar majmuasi yoxud adabi din" (1912), "Yangi adabiyot" (1915) singari majmualarni chuqur o'rganish, joriy yozuvda mukammal nashrlarini yaratish talabi turibdi.

Zamonaviy kitob dunyosidagi bu ilk milliy nashrlarda xalqning ruhini uyg'otish bosh maqsad qilib olingan. Mana shu mo'j'az to'plamlar Turkiston xalqlari uchun bir yorug'lik, najotdek qabul qilingan.

Shu kunlarda Uyg'onish ma'rifati haqida ko'p so'zlanayapti. Bu axloqiy bezanish, iimlarni o'zlashtirishga emas. Uyg'onish ma'rifati uyg'onish og'riqlariga chidam berishdir.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati" DUK

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-746. 43927 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Lutfulla Sunvonov Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz: 100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy